

**QADIMGI SUG'DIYONA DAVLATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY
HAYOTI.**

Ulug'bekova Ruxshona Nodirbek qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Tarix va ijtimoiy fanalar kafedrası

Tarix yo'nalishi 1-kurs talabasi

Email: sahnozaxonulugbekbekov@gmail.com

tel: +998 99 622 45 26

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi Sug'diyona davlati tarixining ayrim jihatlari, uning siyosiy tuzilishi, iqtisodiy faoliyati hamda madaniy hayotidagi o'ziga xosliklar yoritilgan. Sug'diyonaning Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi shakllanishidagi o'rni va boshqa qadimgi davlatlar bilan bo'lgan aloqalari haqida muallif o'z bilimlari asosida tahliliy fikr bildiradi. Maqolada tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar asosida bu hududda yuz bergan ijtimoiy jarayonlarning mazmuni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Sug'diyona, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, Buyuk Ipak yo'li.

Аннотация: В данной статье рассматриваются отдельные аспекты истории древней Согдианы, её политическое устройство, экономическая деятельность и культурное развитие. Автор анализирует роль Согдианы в формировании цивилизации Средней Азии и её связи с другими древними государствами, опираясь на собственные знания и наблюдения. В статье также освещаются социальные процессы, происходившие в этом регионе, на основе исторических источников и археологических находок.

Ключевые слова: Согдиана, Скотоводство, Ремесло, Торговля, Великий Шёлковый путь.

Annotation: This article explores certain aspects of the history of ancient Sogdiana, including its political structure, economic activity, and cultural development. The author analyzes the role of Sogdiana in the formation of Central Asian civilization and its relations with other ancient states based on personal knowledge and understanding. The article also highlights the social processes that took place in this region, supported by historical sources and archaeological findings.

Keywords: Sogdiana, animal husbandry, handicrafts, trade, Great Silk Road.

VII-VI asrlarda O'zbekiston hududida Zarafshon va Qashqadaryo sohasida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi sug'diylar yashagan. Bu hudud tarixiy manbalarda Sug'diyona deb ataladi. Bu yerda siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot yuqori darajada rivoj topgan. Ular Xitoy, Eron, Baqtrya va boshqa qadimgi davlatlar bilan faol aloqalar o'rnatib, Buyuk Ipak yo'li orqali savdo-sotiq qilganlar. Miloddan avvalgi VII-V asrlarda Baqtriya aholisining asosiy mashg'uloti sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik bo'lib, unda hunarmandchilik va savdo ham ancha rivojlangan. Sug'diylar g'alla, uzum

va turli sabzavot ekinlarini yetishtirishgan. Shuningdek, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq ham ularning muhim mashg'ulotlar bo'lgan. Sug'diyonalik savdogarlar Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiya bilan faol savdo aloqalarini olib borishgan. Qadimgi Sug'diyona xalqining asosiy mashg'ulotlari haqida rus sharqshunosi V.V.Bartold (1869-1930) XX asr boshlarida o'z yozgan asarlarida ta'kidlab, Sug'diyonaning Zarafshon vodiysi kabi unumdor yerlarida dehqonchilik rivoj topganini qayd etadi. Barlotning tadqiqotlarida Sug'diyona nafaqat iqtisodiy balki madaniy jihatdan ham o'z davrining yetakchi markazlaridan biri sifatida talqin etiladi. Sug'dlar o'ziga xos yozuv tizimiga ega bo'lib, bu yozuv orqali turli diniy, iqtisodiy va siyosiy matnlarni yozganlar. Ular orasida Zardushtiylik dini keng tarqalgan. Bu dinda olov muqaddas sanalib, odamlar o'z hayoti davomida faqat yaxshi ishlarni amalga oshirib, ezgu amal, ezgu so'z, ezgu fikr orqali inson doimo yomonlik ustidan g'alaba qozonishi ta'kidlangan.

Sug'diyalar chiroyli binolar, ibodatxonalar va devoriy suratlar yaratganlar. Ayniqsa Panjikent va Afrosiyob kabi joylardan topilgan yodgorliklar, ularning madaniyati juda boy bo'lganligini ko'rsatadi. Sug'diyalar boshqa dinlarga hurmat bilan qarashgan. Shu sababli ularning madaniyati juda rivojlangan va turli xalqlar bilan doim aloqada bo'lganlar.

Sug'diyona tarixi haqida eng qadimgi ma'lumotlar turli yozma manbalarda uchraydi. Ahamoniylar davrida yaratilgan Behustun bitiklarida Sug'diyona nomi boshqa viloyatlar qatori tilga olingan. Unda bu hudud Ahamoniylar imperiyasi tarkibida bo'lganligi ko'rsatiladi. Shuningdek, Persepolis saroyi devorlaridagi tasvirlarda ham Sug'diyalar o'ziga xos bo'lgan kiyim-boshda — matodan tikilgan ko'ylak, keng belbog' va boshida qalpoq bilan aks ettirilgan. Bu orqali ularning o'sha davr hayot tarzi va kiyinish madaniyatini tasavvur qilish mumkin. Bundan tashqari, yunon tarixchisi Gerodot ham o'zining "Tarix" asarida Sug'diyona haqida eslab o'tadi. U sug'diyalar Ahamoniylar hukmronligi davrida yashagan xalqlardan biri bo'lganini aytib o'tadi. Sug'diyona Markaziy Osiyoda joylashgani sababli qadimdan turli xalqlar o'rtasidagi savdo va madaniy aloqalarda muhim rol o'ynagan. Mashhur sarkarda Aleksandr Makedonskiyning Sharqqa yurishlari davrida bu hudud ham uning yo'lida joylashgan bo'lgan. U bu yerlarda ba'zi shaharlarni egallab, ba'zilarini qayta qurdirgan, Bu esa yunon-makedon madaniyatining kirib kelishiga sabab bo'lgan. Sug'diyona haqida xitoy yilnomalarida ham ma'lumotlar bor.

Xitoy manbalarida bu o'lka "Ipak yo'li"dagi muhim savdo markazlaridan biri sifatida tilga olinadi. Sug'diyalar orqali Sharq va G'arb o'rtasida nafaqat tovar, balki madaniyat, til va diniy qarashlar ham almashib turgan. Bu aloqalar natijasida Sug'diyona qadim zamonlarda iqtisodiy, madaniy va siyosiy jihatdan rivojlangan markazlardan biriga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, Sug'diyona davlati o'z davrida siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksak darajada rivojlangan hududlardan biri bo'lgan. Arxeologik topilmalar bu yerdagi xalqning san'at me'morchilik va diniy qarashlari boy bo'lganini ko'rsatadi. Sug'diyalar savdo yo'llarini rivojlantirib, turli xalqlar bilan madaniy aloqalar o'rnatganlar.

Shu sababli Sug'diyona nafaqat O'rta Osiyoning, balki butun Sharq sivilizatsiyasining taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan qadimiy davlat sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti- Toshkent, 2021
2. Raxmanov, R. A. "O'zbekiston arxeologiyasi." — Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2009.
3. Islomov, U. N. "Arxeologiya asoslari." — Toshkent: Fan nashriyoti, 2013
4. Xo'jayev, A.N. "Qadimgi O'zbekiston madaniyati va arxeologiyasi" — Toshkent: Universitet nashriyoti, 2017.

